https://gospodarkainnowacje.pl

GOSPODARKA I INNOWACJE

LABORATORIUM WIEDZY Artur Borcuch

Volume: 72 | 2026

Economy and Innovation
ISSN: 2545-0573

For more information contact: editor@gospodarkainnowacje.pl

O‘ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA (DeFi) EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BOZOR INDIKATORLARI

Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, PhD dotsent
daniyarkarshiev@gmail.com

ARTICLEINFO.

Keywords: Decentralised Finance (DeFi), TVL (Total Value Locked), DeFi protokollari, tokenizatsiya loyihalari, kripto-aktivlar, mayning, smart-kontraktлар, kripto-depozitariylar, kripto-birja.

Abstract

Ushbu maqolada O‘zbekistonda DeFi bozorini takomillashtirish orqali mamlakat YAIM da moliya sektori ulushinini oshirish va Turonbank aksiyadorlik tijorat banki faoliyatini amalga oshirishda an’anaviy moliyadan raqamli moliya (Digital Finance) bosqichiga o‘tish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Copyright © 2026 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

Kirish

An’anaviy moliya tizimida (TradFi-Traditional Finance) barcha operatsiyalar markazlashgan tashkilotlar banklar, sug‘urta kompaniyalari, fond birjalari orqali o‘tadi. DeFi’da esa bu rollarni smart-kontraktlar (aqlli shartnomalar) bajaradi. Ular blokcheyn tarmog‘ida (ko‘pincha Ethereum, Solana, yoki Binance Smart Chain) ishlaydi va inson aralashuvisiz avtomatik bajariladi. [1]

Rivojlangan mamlakatlarda DeFi va tokenlash texnologiyalari bozor samaradorligini oshirish, kliring hisob-kitobni tezlatish hamda yangi investitsiya kanallarini yaratishda aniq ijobiy natijalar berdi. Masalan, BIS Innovation Hub, Fransiya Banki, Shveysariya Milliy banki va Singapur MAS hamkorligidagi Project Mariana tajribasi ulgurji CBDClar (wCBDC) o‘rtasida AMM (automated market maker) tamoyili asosida chegaralararo FX savdosi va DvP hisob-kitobini texnik jihatdan mumkinligini ko‘rsatdi. Ushbu jarayon DeFi mexanizmlarining banklararo bozorlarga samaradorlik va avtomatlashtirish olib kirishi mumkinligini tasdiqlaydi.[2]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Johannes Rude Jensen, Viktor fon Vaxter va Omri Ross tomonidan yozilgan “Markazlashtirilmagan moliyaga kirish (DeFi)” nomli ilmiy maqolada DeFi’ning nazariy va amaliy asoslari chuqur tahlil qilingan. Mualliflar ilmiy tahlil asosida, DeFi’ni ruxsatsiz blokcheyn texnologiyasi doirasida joylashtirish, ya’ni markazlashtirilmagan moliyaviy ilovalarning qanday ishlashini, ularning ishtirokchilari, rag‘batlantirish mexanizmlari va xavf omillarini tizimli ravishda tasniflashdir. Tadqiqotda DeFi ilovalari “aqlli kontraktlar” orqali amalga oshiriladigan yangi avlod moliyaviy xizmatlari sifatida talqin qilinadi[3].

Maqolada mualliflar DeFi ekotizimini to‘rtta asosiy yo‘nalish bo‘yicha tahlil qiladilar: kreditlash (lending), savdo (trading), derivativlar (derivatives) va aktivlarni boshqarish (asset management). Ular DeFi platformalarining iqtisodiy rag‘batlar orqali ishtirokchilarni jalb etishini, lekin bu jarayonda likvidlik, smart-kontrakt xatolari, boshqaruv (governance) zaifligi va huquqiy noaniqlik kabi to‘rtta asosiy xavf guruhi mavjudligini qayd etadilar. Xulosa sifatida qayd etsak, maqola DeFi’ni moliyaviy xizmatlarning yangi paradigmasi sifatida baholaydi, u an’anaviy bank vositachiligini kamaytiradi, lekin barqaror rivojlanish uchun texnik, iqtisodiy va regulyatorlik risklarni chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Shu jihatdan, DeFi moliya tizimining demokratlashtirilgan va global innovatsion shakli sifatida ko‘riladi.[4]

“CeFi vs. DeFi - Comparing Centralized to Decentralized Finance” nomli maqola “Imperial College London” tadqiqotchilari Kayxua Qin, Liyi Zhou, Yaroslav Afonin, Ludovico Lazzaretti va Artur Gervaislar tomonidan 2021-yilda tayyorlangan bo‘lib, markazlashtirilgan moliya (CeFi) va markazlashmagan moliya (DeFi) tizimlari o‘rtasidagi texnologik, iqtisodiy, huquqiy, xavfsizlik va maxfiylik jihatlarini ilmiy asosda solishtirishni maqsad qilgan. Ular moliyaviy xizmatlarni CeFi yoki DeFi sifatida tasniflash uchun “Decision Tree” metodologiyasini ishlab chiqqanlar. Shu orqali ular stabilkoinlar (masalan, USDT, USDC) to‘liq DeFi aktivlari sifatida qaralmasligi, chunki ular markaziy boshqaruvga ega ekanini ilmiy isbotlaydilar.[5]

Raphael Auer, Bernhard Haslhofer, Stefan Kitzler, Pietro Saggese va Friedhelm Victorlar томонидан “The Technology of Decentralized Finance (DeFi)” nomi bilan Springer Nature Switzerland AG nashriyotining Digital Finance jurnalida 2024-yilda chop etilgan мақолада, DeFi texnologiyalarining arxitekturasi, iqtisodiy mexanizmlari va xavf omillari ilmiy jihatdan tahlil қилинган. Mualliflar DeFi’ni markazlashmagan, kompozitsion va nosterjen tizim sifatida ta’riflab, uni an’anaviy moliya (TradFi) va markazlashtirilgan moliya (CeFi) dan tub farqlovchi jihatlarni ochib berganlar. Ular yangi DeFi Stack Reference (DSR) modelini ishlab chiqib, DeFi’ning uchta qatlamli tuzilmasini (settlement, application, interface) tizimli ko‘rinishda ifodalaganlar.[6]

Mualliflar DeFi’ni kelajak moliya ekotizimining texnologik modeli sifatida e’tirof etadi. Ular shaffoflik, avtomatlashtirish va ochiq raqobat orqali samaradorlikni oshirish imkonini ta’kidlaydilar, biroq barqarorlik va tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini qayd etadilar. DeFi’ning barqaror rivojlanishi uchun, huquqiy va texnik standartlar ishlab chiqish**,** oracles va smart-kontraktlar xavfsizligini kuchaytirish, DeFi va TradFi integratsiyasi (CeDeFi) modelini yo‘lga qo‘yishni taklif etadi. [7]

Copyright © 2026 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

Matteo Aquilina, Jon Frost va Andreas Shrimpf tomonidan “Markazlashtirilmagan moliya (DeFi): Funktsional yondashuv” nomli ilmiy maqola Journal of Financial Regulation (Moliyaviy tartibga solish jurnali) da, Oksford University Press nashriyotida 2024-yil aprel oyida chop etilgan. Mualliflar DeFi fenomenini an’anaviy moliya (TradFi) bilan funktsional jihatdan taqqoslab, markazlashtirilmagan moliya tizimining iqtisodiy mohiyatini va u bilan bog‘liq regulyatorlik yondashuvlarini chuqur tahlil qiladi. Ularning fikricha, DeFi bu faqat texnologik yangilik emas, balki moliyaviy vositachilikning yangi modeli bo‘lib, u iqtisodiy risklar va bozor nosimmetrikliklarini o‘zida saqlaydi.

Maqolada DeFi’ning asosiy funksiyalari aktivlarni moliyalashtirish, qarz berish, savdo, riskni taqsimlash va to‘lovlar tizimi TradFi’dagi funksiyalar bilan tizimli tarzda solishtirilgan. Mualliflar xulosasiga ko‘ra, DeFi’ning asosiy yangiligi avtonom vositachilik bo‘lsa-da, u iqtisodiy risklar jihatidan an’anaviy moliyadan ajralmagan. Shu sababli, moliyaviy tartibga solishning iqtisodiy asoslari (bozor muvaffaqiyatsizliklari, axborot nomutanosibligi, tashqi ta’sirlar) DeFi uchun ham amal qilishi kerak. Tadqiqot natijasida ular quyidagi tavsiyalarni beradi, DeFi uchun funktsional asoslangan regulyatsiya modeli joriy etish, iste’molchilarni himoya qilish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda riskga asoslangan yondashuvni qo‘llash, TradFi va DeFi o‘rtasida muvozanatli integratsiyani rag‘batlantirish, aqlli kontraktlar xavfsizligini oshirish uchun audit va monitoring tizimlarini yaratish.[8]

Tahlil va natijalar

Decentralized Finance (DeFi) blokcheyn texnologiyasiga asoslangan, vositachilarsiz moliyaviy xizmatlarni amalga oshiruvchi tizimdir. U markaziy banklar, tijorat banklari yoki boshqa moliyaviy vositachilarga tayanmasdan, foydalanuvchilar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy operatsiyalarni ta’minlaydi.

DeFi platformalarida asosiy element sifatida “smart-kontraktlar” (aqlli shartnomalar) ishlatiladi, ular avtomatik tarzda shartlarni bajaradi va tranzaksiyalarni ishonchli tarzda amalga oshiradi.[9]

DeFi’ning paydo bo‘lishiga uchta omil sabab bo‘lgan:

- markazlashtirilgan moliyaviy tizimlardagi ishonch inqirozi,
- blokcheyn texnologiyasining rivojlanishi,
- foydalanuvchilarning o‘z moliyaviy aktivlarini to‘liq nazorat qilish istagi.



1-diagramma. Decentralized Finance (DeFi) global bozor hajmi prognozi. ***(mlrd AQSh dollari,)***

Copyright © 2026 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

1-diagramma Precedence Research tadqiqot kompaniyasi tomonidan tayyorlangan bo‘lib, u 2024-2034-yillar oralig‘ida Decentralized Finance (DeFi) global bozori hajmini prognoz qilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, DeFi bozori 2024-yildagi 21,04 milliard AQSh dollaridan 2034-yilda 1 558,15 milliard AQSh dollarigacha o‘sadi, ya’ni yillik o‘sish sur’ati (CAGR) 53,8% ni tashkil etadi. Bu shuni anglatadiki, DeFi global moliyaviy tizimda eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, 10 yil ichida bozor hajmi 74 baravarga oshadi. Asosiy o‘sish drayverlari sifatida blokcheyn texnologiyalarining takomillashuvi, kriptovalyutalarning institutsional qabul qilinishi, hamda smart-kontraktlar asosidagi moliyaviy xizmatlarga ishonchning ortishi qayd etiladi. Diagrammadagi raqamlar 2024-2028-yillarda barqaror, ammo o‘rtacha o‘sishni, 2029-yildan keyin esa tezlashgan eksponentsial sakrashni ko‘rsatadi. Bu tendensiya kapital oqimlarining DeFi loyihalariga yo‘naltirilishi, tokenlashgan aktivlar bozori kengayishi, va an’anaviy moliyadan raqamli moliyaga o‘tish jarayonining jadallashuvi bilan bog‘liq.[10]

Shuningdek, PwC va BIS hisobotlariga ko‘ra DeFi segmentida asosiy ulushni kreditlash (lending), decentralizatsiyalashgan birjalar (DEX) va steyking xizmatlari egallashi prognoz qilingan. Bu model kelgusida davlatlar uchun ham yangi soliqqa tortish, regulyatsiya va moliyaviy xavfsizlik mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, DeFi bozorining bunday tez o‘sishi global moliyaviy tizimda tub iqtisodiy transformatsiya jarayonining boshlanishini anglatadi. DeFi ekotizimida ko‘plab platformalar faoliyat yuritadi, biroq eng yiriklari quyidagilar hisoblanadi, Uniswap avtomatlashtirilgan savdo (AMM) tizimiga asoslangan likvidlik birjasi, Aave foydalanuvchilarga garov asosida qarz berish va olish imkonini beruvchi protokol, Maker DAO-DAI stablecoin orqali markazlashmagan kreditlash tizimi, Curve Finance stablecoinlar o‘rtasidagi likvid almashinuvni ta’minlovchi DEX, Compound tokenlashtirilgan foiz stavkalari bilan kreditlash tizimi. Ushbu protokollar an’anaviy moliyaviy vositachilar (banklar, brokerlar) funksiyasini avtomatlashtirilgan tarzda bajaradi. DeFi tizimi foydalanuvchiga to‘liq egalik, shaffoflik va global kirish imkoniyatini beradi. [11]

DeFi nafaqat yangi texnologik yondashuv, balki iqtisodiy tizimdagi ishonch mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishdir. An’anaviy moliyada vositachilik (trust-based intermediation) asosiy rol o‘ynasa, DeFi’da bu ishonchni kod (smart-kontrakt) va kriptografiya ta’minlaydi. Natijada tranzaksiyalar shaffof, tekshiriladigan va o‘zgartirib bo‘lmaydigan shaklda amalga oshadi.

DeFi tizimining makroiqtisodiy afzalliklari:

- moliyaviy inklyuziya darajasini oshiradi;
- kapital bozorlarida likvidlikni kengaytiradi;
- chet el investitsiyalarini jalb etish uchun yangi raqamli kanallar yaratadi;
- mikro va kichik biznes subyektlari uchun tezkor moliyalashtirish imkoniyatini beradi.



2-diagramma. DeFi bozorida hududlar ulushi.

Copyright © 2026 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

2-diagramma ma’lumotlarini tahlil qilsak, Shimoliy Amerika kuchli institusional qabul qilish va innovatsiya markazlari tomonidan boshqariladigan 37% ulush bilan global DeFi bozorida yetakchilik qilmoqda.[12] Yevropa hududi ikkinchi eng katta ulushga ega 29% , mustahkam tartibga soluvchi ishlanmalar va faol blokcheyn hamjamiyatlarini aks ettiradi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bozorning 23 foizini egallaydi, bu fintechning tez o‘sishi va Singapur, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda kriptovalyutadan xabardorlikni oshirish bilan bog‘liq. Lotin Amerikasi bozorning 8 foizini tashkil qiladi, bu erda DeFi tobora ko‘proq moliyaviy istisno va valyuta beqarorligiga yechim sifatida qaralmoqda. Yaqin Sharq va Afrika (MEA) mintaqasi 3% hissa qo‘shadi, qiziqish ortib bormoqda, lekin cheklangan infratuzilma va kirish kengroq qabul qilishni sekinlashtirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida O‘zbekistonda DeFi (Decyentralized Financye) tizimi rivojlanishi uchun huquqiy-institusional asos yaratildi. Qarorning asosiy maqsadi raqamli iqtisodiyotni joriy etish, blokcheyn va ma’lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalarini amaliy hayotga tatbiq etish orqali investision muhitni yaxshilash va innovasion moliya xizmatlarini yo‘lga qo‘yishdir. Qarorda mayning, smart-kontrakt, token emissiyasi, kripto-birja va kripto-depozitariy kabi faoliyat turlari aniq belgilab berilib, ularni lisenziyalash va soliqdan vaqtincha ozod qilish orqali raqamli aktivlar bozorini shakllantirish nazarda tutildi. Bu orqali mamlakat moliya tizimida blokcheyn asosidagi amaliyotlar avtomatik hisob-kitob, shartnomalarning ijrosini smart-kontraktlar orqali ta’minlash, investisiya va to‘lov tizimlarining shaffofligini oshirish imkoni paydo bo‘ldi.

Ushbu Qaror natijasida raqamli aktivlar aylanmasi uchun alohida huquqiy maydon “tartibga solish qumdoni” rejimi tashkil etildi, bu esa DeFi protokollarini mahalliy iqtisodiyotda sinovdan o‘tkazishga yo‘l ochdi. Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori O‘zbekiston moliya tizimini desentralizatsiya tamoyillari asosida yangilash, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va xalqaro raqamli iqtisodiyot bilan integratsiyalashishning asosiy poydevori bo‘ldi.O‘zbekiston moliya sektori uchun DeFi konsepsiyasi strategik ahamiyatga ega бўлиб bank tizimi raqamlashtirilishini tezlashtiradi, transchegaraviy to‘lovlarni optimallashtiradi, startaplar uchun yangi moliyaviy instrumentlar (tokenlash, kripto-kreditlash) yaratadi, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish orqali aholi va tadbirkorlik subyektlarini raqamli iqtisodiyotga jalb etadi.DeFi tizimi O‘zbekiston uchun nafaqat texnologik innovatsiya, balki moliyaviy transformatsiyaning asosiy omili sifatida qaralishi lozim. O‘zbekiston moliya tizimida DeFi konsepsiyasi so‘nggi uch yil ichida faol muhokamaga kiritila boshlandi. [13]

2022-2023-yillarda “National Blockchain Strategy” loyihasi doirasida Toshkent shahrida “Blockchain Hub Uzbekistan” markazi tashkil etildi. Bu markaz DeFi startaplarga, smart-shartnoma ishlab chiquvchilarga va tokenlashtirish loyihalariga texnik hamda yuridik ko‘mak beradi.

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va IT Park hamkorligida “DeFi Pilot Uzbekistan” tashabbusi yo‘lga qo‘yilib, unda 20 dan ortiq startap-laboratoriyalar ishtirok etdi. Shu orqali DeFi sohasida dastlabki TVL hajmi 5 million AQSH dollari atrofida bo‘lgan lokal loyihalar shakllandi.

O‘zbekiston DeFi bozori rivojlanishining ilk bosqichida bo‘lsa-da, uning istiqbollari juda yuqori. Mamlakatning “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi, yosh IT mutaxassislarning ortib borayotgan soni va davlatning kriptoaktivlarga ehtiyotkorona, ammo ijobiy yondashuvi DeFi infratuzilmasining kengayishi uchun qulay muhit yaratmoqda.[14]

O‘zbekiston moliya sektorida DeFi tizimi hali nisbatan yangi bo‘lsa-da, 2025-yil boshiga kelib quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar qayd etilgan.

Copyright © 2026 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

2-Jadval. O‘zbekiston DeFi bozori indikatorlari.

Ko‘rsatkich	2023-yil	2024-yil	2025-yil (prognoz)
TVL (Total Value Locked), mln USD	1,2	4,8	9,5
Foydalanuvchi hamyonlar soni	12 000	45 000	110 000
Aktiv DeFi protokollari	3	7	12
Stablecoin aylanish ulushi (%)	0,4	1,1	2,8
NFT va tokenizatsiya loyihalari	2	6	15

2-жадвал маълумоларига кўра, DeFi O‘zbekistonning raqamli iqtisodiy muhitida endigina shakllanayotgan, ammo yuqori o‘sish salohiyatiga ega sektor sifatida paydo bo‘lmoqda. TVL o‘sishining asosiy omillari kriptovalyuta savdosi qonuniyligi, yoshlarning texnologik savodxonligi, va xalqaro investorlarning tokenizatsiya loyihalariga qiziqishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan joriy qilingan “regulatory sandbox” mexanizmi DeFi mahsulotlarini sinovdan o‘tkazish imkonini yaratdi.

DeFi tizimining eng muhim xususiyati moliyaviy vositachilarning yo‘qligi. O‘zbekiston bank sektorida bu jarayon “open banking” va “API-based payment” mexanizmlari orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Masalan, “Kapitalbank” va “TBC Bank Uzbekistan” 2024-yilda DeFi asosida “stablecoin-to-som” konvertatsiya tizimini sinovdan o‘tkazdi. Natijada foydalanuvchilar o‘z tokenlarini somga avtomatik tarzda konvertatsiya qila olishdi. Bu amaliyot kelgusida transchegaraviy to‘lovlarni soddalashtiradi va xalqaro freelancing sektorida samaradorlikni oshiradi. Bundan tashqari, sug‘urta va mikrokredit tashkilotlari DeFi platformalaridan foydalanib, “peer-to-peer” P2P moliyalashtirish modellarini joriy eta boshladi. Bu, xususan, Bandlik jamg‘armasi va IT-Park loyihalari bilan hamohang holda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi yangi moliyaviy instrumentlarni shakllantiradi.

O‘zbekistonda Decentralised Finance (DeFi) bozori jadal o‘sib bormoqda. TVL (Total Value Locked) 2023-yildagi 1,2 mln dollardan 2025-yilga kelib 9,5 mln dollargacha oshishi kutilmoqda. Foydalanuvchi hamyonlari soni esa uch yil ichida 9 barobarga яъни 12 mingdan 110 minggacha o‘sgan. Bu jarayon moliyaviy institutlar, xususan Turonbank uchun yangi raqamli transformatsiya imkoniyatlarini ochmoqda.

Ushbu o‘zgarishlarga mos holda, Turonbank aksiyadorlik tijorat banki DeFi integratsiya strategiyasini ishlab chiqishi zarur. Bank o‘zining to‘lov, investitsiya va kreditlash xizmatlarini blokcheyn asosidagi smart-kontrakt tizimlariga ulashi orqali mijozlarga tezkor, shaffof va xavfsiz moliyaviy mahsulotlarni taklif etishi mumkin. Ayniqsa, 2025-yilda DeFi protokollarining 12 taga yetishi, mahalliy hamkorlik platformalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Stablecoin aylanish ulushining 0,4% dan 2,8% gacha oshishi Turonbank aksiyadorlik tijorat banki uchun o‘z tokenlashgan to‘lov tizimini yaratish va blokcheyn asosida xalqaro hisob-kitob mexanizmlarini soddalashtirish imkonini beradi. Bu xalqaro hamkorlikda to‘lov kechikishlarini kamaytirib, valyuta risklarini pasaytiradi.

NFT va tokenizatsiya loyihalari sonining uch barobarga oshishi Turonbank aksiyadorlik tijorat banki uchun yangi aktiv turlarini garov yoki investitsiya instrumenti sifatida tan olishni ko‘zda tutadi. Bank raqamli aktivlar saqlanmasi uchun “**Turon Digital Custody**” kabi innovatsion platforma ishlab chiqishi mumkin.

DeFi bozori kengayishi Turonbank aksiyadorlik tijorat bankiga an’anaviy moliyadan raqamli moliya (Digital Finance) bosqichiga o‘tish imkonini beradi. Bank tezkor texnologik transformatsiyani amalga oshirsa, 2026-yilda DeFi ekotizimining asosiy ishtirokchisiga aylanishi mumkin. Shu orqali nafaqat milliy, balki mintaqaviy raqamli moliyaviy markaz maqomini egallash ehtimoli ortadi.[15]

Xulosa va takliflar

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda DeFi bozori so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda va raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Mamlakat hukumati tomonidan DeFi tizimining huquqiy

Copyright © 2026 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

asoslari yaratilmoqda hamda institutsional jixatdan tashkillashtirilmoqda. Bugungi kunda milliy miqyosda mayning, token emissiyasi va kriptobirja faoliyati tartibga solingan bo‘lib, bu sohadagi ishbilarmonlik muhiti tobora liberallashmoqda.

2023-2024 yillar davomida O‘zbekistonda kriptovalyuta foydalanuvchilari soni sezilarli o‘sgan bo‘lib 2023-yilda 500 ming atrofida bo‘lgan foydalanuvchilar soni 2024-yil oxiriga kelib 1 milliondan oshgan. Kriptoaktivlar aylanmasidan kelgan umumiy tushum 2023-yilda 30 mln dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 70-80 mln dollarga yaqinlashgan. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda 10 dan ortiq lisenziyalangan xizmat provayderlari shu jumladan kriptobirjalar va mayning pullar faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonda 2029-yilgacha kriptooperatsiyalar soliqdan ozod qilingani bozorga yangi investisiyalar kirib kelishini rag‘batlantirdi. Shu bilan birga, mayning faqat quyosh energiyasi asosida amalga oshirilishi va anonim kriptovalyutalar aylanmasining taqiqlanishi orqali ekologik va xavfsizlik omillari ta’minlanmoqda. O‘zbekistonda kriptovalyuta bozori barqaror institusional shakllanish bosqichiga o‘tmoqda. Bu jarayon mamlakatning moliya tizimida desentralizatsiya elementlarini kuchaytiradi, raqamli investisiyalar oqimini oshiradi hamda FinTech va DeFi infratuzilmasini kengaytirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] President of the Republic of Uzbekistan, Resolution No. PQ-3832, “On measures for the development of the digital economy and the circulation of crypto-assets in the Republic of Uzbekistan,” Jul. 3, 2018.

[2] M. Aquilina, J. Frost, and A. Schrimpf, “Decentralized finance (DeFi): A functional approach,” *Journal of Financial Regulation*, vol. 10, no. 1, pp. 1–27, 2024.

[3] J. Jensen, V. von Wachter, and O. Ross, “An introduction to decentralized finance (DeFi),” *Complex Systems Informatics and Modeling Quarterly*, no. 26, pp. 46–54, 2021.

[4] K. Qin *et al*., “CeFi vs. DeFi—Comparing centralized to decentralized finance,” *arXiv preprint arXiv:2106.08157*, 2021.

[5] R. Auer *et al*., “The technology of decentralized finance (DeFi),” *Digital Finance*, vol. 6, no. 1, pp. 55–95, 2024.

[6] S. Nakamoto, “Bitcoin: A peer-to-peer electronic cash system,” 2008.

[7] V. Buterin, “A next-generation smart contract and decentralized application platform,” 2014.

[8] A. Antonopoulos, *Mastering Bitcoin: Programming the Open Blockchain*, 2nd ed. Sebastopol, CA, USA: O’Reilly Media, 2017.

[9] A. M. Antonopoulos and G. Wood, *Mastering Ethereum*. Sebastopol, CA, USA: O’Reilly Media, 2018.

[10] D. Yermack, “Corporate governance and blockchains,” *Review of Finance*, vol. 21, no. 1, pp. 7–31, 2017.

[11] P. Vigna and M. J. Casey, *The Age of Cryptocurrency*. New York, NY, USA: St. Martin’s Press, 2015.

[12] World Bank, *Blockchain and Distributed Ledger Technology in Finance*. Washington, DC, USA, 2020.

[13] OECD, *The Tokenisation of Assets and Potential Implications for Financial Markets*. Paris, France, 2020.

[14] IMF, *Global Financial Stability Report: Crypto Assets and DeFi*. Washington, DC, USA, 2023.

[15] BIS, *Decentralised Finance: On Blockchain- and Smart Contract-Based Financial Markets*. Basel, Switzerland, 2021.

Copyright © 2026 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0